

**O‘zbekiston Respublikasi Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik
vazirligining korrupsiya faktlariga doir murojaatlarni ko‘rib chiqish
natijalari haqida
HISOBOT**

I. Umumiy ma’lumot

2024-yilda aloqa kanallari orqali Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligiga **22 ta** (12 ta jismoniy shaxs murojaati, 10 ta HMQOning taqdimnomasi), Andijon viloyati **14 ta** (6 ta jismoniy shaxs murojaati, 8 ta HMQOning taqdimnomasi), Sirdaryo viloyati **23 ta** (11 ta jismoniy shaxs murojaati, 12 ta HMQOning taqdimnomasi va yuridik shaxs xati), Qashqadaryo viloyati **2 ta**, Namangan viloyati **10 ta**, Farg‘ona viloyati **17 ta**, Tashqi mehnat migratsiyasi agentligiga* **32 ta jami 120 ta** murojaatlar kelib tushgan.

Ushbu murojaatlarning **20 tasi** Ishonch telefoni orqali, **4 tasi** maxsus bot orqali, **96 tasi** pochta orqali kelib tushgan.

Vazirlik tizimidagi qolgan tizim tashkilotlarga murojaatlar kelib tushmagan.

II. Ko‘rib chiqish natijalari

Kelib tushgan **120 ta** murojaatlar belgilangan tartibda qabul qilinib o‘rganib chiqilgan. O‘rganish natijasiga ko‘ra, **105 ta** murojaat bo‘yicha tushuntirish berilgan, **4 ta** murojaat bo‘yicha salbiy holat o‘z tasdig‘ini topgan, **11 ta** murojaat tegishliligi yuzasidan boshqa tashkilotlarga yuborilgan.

Aloqa kanallari orqali kelib tushgan murojaatlar yuzasidan **25 ta** xizmat tekshiruvini o‘tkazilgan, **22 ta** holat yuzasidan huquqni muhofaza qiluvchi organlarga huquqiy baho berish uchun hujjatlar (xulosalar va tegishli materiallar) yuborilgan.

Korrupsiyaviy holatlar bo‘yicha **4 ta murojaat** (1 ta Vazirlikka, 2 ta Tashqi migratsiya agentligi, 1 ta Sirdaryo viloyatiga kelib tushgan)ni o‘rganish yakuni bo‘yicha huquq tartibot idoralari tomonidan **3 ta jinoyat ishi qo‘zg‘atilgan**.

Murojaatni o‘rganish natijasida mas’ul xodimlarga nisbatan **77 ta “Hayfsan”** intizomiy jazosi, **21 ta** xodim bilan mehnat shartnomasi bekor qilish chorasi qo‘llanilgan.

III. Minimallashtirish choralari

Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligining korrupsiyaviy va manfaatlar to‘qnashuvini oldini olish maqsadida ichki idoraviy hujjatlar yangilandi, tizim xodimlaridan manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risida deklaratsiyalar hamda korrupsiyaga qo‘l urmaslik bo‘yicha kafolat xatlari olindi, o‘tkaziladigan hay’at yig‘ilishlarida aniqlangan korrupsiyaviy holatlar va ularni oldini olish bo‘yicha Vazir boshchiligida muhokamalar o‘tkazilishi yo‘lga qo‘yildi, vazirlik funktsiya va vazifalari, aloqa kanallari orqali kelib tushgan murojaatlar va boshqa hukumat qarorlarida belgilangan vazifalardan kelib chiqib, Vazirlik korrupsiyaviy xavf-xatarlar xaritasi yaratildi, funktsiyaga oid vazifalarni raqamlashtirish choralari ko‘rildi.

Izoh: Ma’lumotda Migratsiya agentligining 2024-yil 9-oylik ma’lumotlari kiritilgan. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Migratsiya jarayonlarini boshqarish tizimini isloh qilish bo‘yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-162-son Farmoniga asosan Tashqi mehnat migratsiyasi agentligi faoliyati tugatilib, Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Migratsiya agentligi tashkil etildi.